

PROFILAKTIKA INSPEKTORINING HUQUQBUZARLIKLARNING MAXSUS PROFILAKTIKASINI TASHKIL ETISH FAOLIYATI

Temirov Sherzod Akbar o'gli

Ichki ishlar Vazirligi Akademiyasi 207-guruh kursanti

Аннотация: В данной статье в связи с этим изучена организация специальной профилактики правонарушений инспекторами-профилактиками, ее особенности, задачи, современное состояние и система специальных профилактических мероприятий, факторы, препятствующие этой деятельности, передовой зарубежный опыт. разработаны достигнутые положительные результаты, представлены организационные основы деятельности инспектора профилактики по специальной профилактике преступлений.

Ключевые слова: Профилактика преступности, криминогенная обстановка, современные информационно-коммуникационные технологии, публичное пространство, средства видеонаблюдения, специальные мероприятия.

Annotation: In this article, the organization of special prevention of offenses by preventive inspectors, its specific features, tasks, the current state and system of special preventive measures, the factors hindering this activity, advanced foreign experience are studied in this regard. Proposals for strengthening the achieved positive results have been developed, the organizational bases of the activities of the prevention inspector on the special prevention of crimes have been presented.

Key words: Crime prevention, criminogenic situation, modern information and communication technologies, public space, video surveillance devices, special events

Annotatsiya: Ushbu maqolada profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini tashkil etish, uning o'ziga xos xususiyatlari, vazifalari, maxsus profilaktik chora-tadbirlar ning bugungi kundagi holati, tizimi, ushbu faoliyatga to'sqinlik qilayotgan omilla, ilg'or xorij tajribasi o'rganilib bu borada erishilgan ijobiy natijalarni mustahkamlash yuzasidan takliflar ishlab chiqilgan, profilaktika inspektorining huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasi bo'yicha faoliyatining tashkiliy asoslari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Huquqbuzarliklar profilaktikasi, kriminogen vaziyat, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari, jamoat joyi, videokuzatuv moslamalari, maxsus tadbirlar

O'zbekiston Respublikasi Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash borasida kompleks chora tadbirlar amalga oshirilib, mamlakatda huquq-

tartibotni ta'minlashda ijobiy natijalarga hamda kriminogen vaziyatni sezilarli darajada yaxshilashga erishildi.

Aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash bugungi kunda eng muhim vazifadir. Shu bois 2017-yildan buyon mamlakatimizda huquqbuzarliklar profilaktikasi faoliyatini tubdan islox qilish borasidagi ishlarning yangi bosqichi boshlangan. Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirishning ta'sirchan tizimini yaratish qonun buzilishlarining oldini olish va ularni bartaraf etishning zamonaviy tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish maqsadida bir qancha qonun va qarorlar qabul qilindi. Hozirgi kunda zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari shu jumladan, videokuzatuv, elektron xisobga olish va o'zaro axborot almashish, idoralararo ma'lumotlar bazalari tizimlari profilaktik ishlarga keng joriy etilmoqda.

Ayniqsa huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng tatbiq qilinmoqda. Shu bois huquqbuzarliklar profilaktikasi inspektori ham huquqbuzarliklarning maxsus amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari profilaktika inspektorlari qaysi toifadagi shaxslar bilan ko'proq ishlashi va bunda huquqbuzarliklarning kamayishi, huquqbuzarliklarga qarshi kurashish emas uning barvaqt oldini olish zarurligi o'z ifodasini topgan. Shuningdek, profilaktika inspektorlarning maxsus profilaktikasi bo'yicha faoliyatini tashkil etishning bugungi holati, maxsus profilaktikaning amalga oshirish chora-tadbirlari, usullari bayon etilgan.

Huquqbuzarliklarning oldini olish tizimidagi dastlabki islohotlar natijasida mahallalarda tinchlik-osoyishtalik mustahkamlandi, jinoyatlarni tezkorlik bilan ochish ko'rsatkichi yaxshilandi. Ushbu islohotlarda profilaktika inspektorlarining vazifa va vakolatlari tasdiqlangan bo'lib, unda aynan huquqbuzarliklarni aniqlash va ularga chek qo'yish, huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va ularga imkon beruvchi shart-sharoitlarni bartaraf etish bo'yicha maxsus profilaktik chora-tadbirlarni, shuningdek huquqbuzarlik sodir etishga moyil shaxslar bilan profilaktik ishlarni amalga oshiradilar deb belgilanganidan bilishimiz mumkin ki aynan profilaktika inspektorlari o'z xizmat vazifalarini o'z xizmat hududlarida bajarayotgan vaqtda huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini tashkil etadi va amalga oshiradi.

Profilaktika inspektorlarining huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini tashkil etish faoliyati-profilaktika inspektorlarining ayrim turdagi huquqbuzarliklarni sodir etish sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etishga, ayrim toifadagi shaxslarni aniqlash va ularga profilaktik ta'sir ko'rsatishga qaratilgan maxsus tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishga doir faoliyatdir.

Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasining chora-tadbirlariga ilgari sudlangan shaxslar o'rtasida alkogolni suiste'mol qiluvchi, giyohvandlik

vositalarini, psixotrop moddalarni iste'mol qiluvchi shaxslar o'rtasida, voyaga yetmaganlar o'rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklari o'rtasida amalga oshiriladi.

Huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshirish uchun ayrim turdagi huquqbuzarliklarning, shaxslarning ko'payishi hamda jamoat xavfsizligi va jamoat tartibi, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlariga tajovuz qiluvchi xatarlar va tahdidlarning yuzaga kelishi asos bo'ladi. Profilaktika inspektorlari huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini tashkil etish faoliyati qabul qilingan dasturlari, idoraviy va idoralararo ishlab chiqilgan kompleks va alohida dasturlar asosida o'tkazilishi mumkin. Profilaktika inspektorlari huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini tashkil etishda og'zaki, yozma, ko'rgazmali va elektron shakllarda amalga oshiradi. Profilaktika inspektorlari o'z hududlarida ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini amalga oshirishi lozim. Binobarin, ommaviy axborot vositalari ommaviy nashrlar orqali vaziyatni tahlil etishga hamda zarur hollarda to'g'ri xulosa chiqarishga yordam beradi. Bu borada televideniya muhim tutishini alohida ta'kidlash lozim. Chunki televideniya hozirgi kunda eng taraqqiy etgan axborot vositasi ekanligidan, tarbiya jarayonida foydalanish katya ahamiyatga egaligini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak.

IIO tayanch punktlarida xizmat olib boruvchi profilaktika inspektorlari faoliyati rivojlangan davlatlar tajribalari va mahalla institutini inobatga olgan holda tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunda jamiyatda jamoat tartibi saqlash, fuqaro xavfsizligi ta'minlash, jinoyatlarni oldini olish kabi bir qancha vazifalarni bajarib kelmoqda. IIO tayanch punktlarida profilaktika inspektorlari huquqbuzarliklarning maxsus profilaktikasini tashkil etishdan maqsad biriktirilgan hududda tezkor vaziyatni barqarorlashtirish, huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olish, huquqbuzarliklar profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish, sodir etilgan jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash, fosh etishdan iboratdir. Maxsus profilaktik tadbirlar huquq tartibotni ta'minlash, respublikadagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy kriminogen vaziyatning barqarorligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi borasidagi ishlarni samaradorligini oshirish, diniy eksterimistik oqim tarafdorlarini aniqlash, passport tizimi, respublikaga chet el fuqarolarini kelish ketish tartibini mustahkamlash, noqonuniy ravishda saqlanayotgan qurollarni aniqlash va giyohvand moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashish maqsadlarida o'tkaziladi.

Shu bilan birga maxsus profilaktik tadbirlar-bugungi kunda yoshlarni ta'lim olish jarayoniga alohida e'tibor qaratish, oliy o'quv yurtlarini bitirib mutaxassislikka ega bo'lgan yoshlarni ish bilan ta'minlash hamda ularning doimiy ish bilan band bo'lishini nazorat qilish kabi faoliyatni OAV tomonidan turli mavzularda fuqarolarning huquqiy ongi va saviyasini oshirishga qaratilgan targ'ibot-tashviqot va tushuntirish ishlarini olib borishda ham ko'rishimiz mumkin.

Shuni alohida qayd qilish joizki, bugungi kunda respublikada ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatishga urinayotgan, ya'ni, noqonuniy ravishda diniy targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borish holatlari uchramoqda. Masalan, "Masjid" tadbiri o'tkazilishi natijasida ruxsat etilmagan joylarda diniy saboq berishga ruxsatnomasi bo'lmagan shaxslardan diniy bilimlarni olishga qiziqib yetmaganlar aniqlanadi va ular o'rtasida diniy aqidaparastlikni oldini olish maqsadida ro'yxatlarni tuzib, ularning ota-onalari hamda maktab ma'muriyati bilan hokimliklar qoshidagi voyaga yetmaganlar komissiyasida muhokama tashkil etilmoqda."O'smir" maxsus tadbiri davomida esa profilaktika inspektorlari profilaktik xisobda turuvchi huquqbuzarlik sodir etishga moyil voyaga yetmagan shaxslar bilan yakka tartibda profilaktik suhbat o'tkazishi va yashash joyini tekshirishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, har qanday davlatda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Chunki tartib bo'lgan, xavfsizlik ta'minlangan yurtda tinchlik-osoyshtakik, fayz-u Baraka va taraqqiyot bo'ladi, jamiyat davlat yuksalib boradi, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish esa oqilona boshqaruv tizimi bo'lishini taqozo etadi. Darhaqiqat, huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi choratadbirlarni ushbu mezonlar asosida yoritilishi birinchidan, huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirishning bugungi holatini oydinlashtirishga, ikkinchidan, ushbu yo'nalishdagi mavjud muammolarni aniqlash va mavjud holatga obyektiv baho berish, uchinchidan, huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarini amalga oshirish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy xulosa, amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqish imkonini beradi. Shuningdek, quyidagi xulosa va takliflar qayd etish mumkin: - profilaktik tadbirlarni: a) oshkora va nooshkora o'tkazilishiga ko'ra: "maxsus profilaktik" va "tezkor-profilaktik" tadbirlarga; b) profilaktik ta'sir ko'rsatish obyektlari doirasiga ko'ra: "umumijtimoiy profilaktik" va "individual profilaktik" tadbirlarga tasniflash maqsadga muvofiqdir. - Huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasi chora-tadbirlarining tizimi – bu, huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasini tashkil etish va amalga oshirish uchun puxta o'ylab, ishlab chiqilgan va amalga oshirilgan tadbirlar, xatti-harakatlar majmuidir. - Huquqbuzarliklar profilaktikasi qonunchiligida huquqbuzarliklar maxsus profilaktikasining profilaktik chora-tadbirlari tizimi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Qonunda faqat ayrim toifadagi shaxslar bilan amalga oshiriladigan maxsus profilaktik chora-tadbirlarni belgilash bilan cheklanilgan. Zero, chora-tadbirlar shaxsning aniqlangan individual, ya'ni ma'naviy, ruhiy, biofiziologik xususiyatlarini, turmush sharoiti va oilaviy ahvolini tavsiflovchi ma'lumotlarga asoslangan holda ishlab chiqilishi, shuningdek shartli hukm qilingan yoki jinoiy jazoni o'tayotgan shaxslarga nisbatan individual profilaktik rejalar bir yil muddatga tuzilishi va shartli hukm yoki jazo muddati davri bo'yicha har yili yangilanib borilishi bilan tavsiyaviy xarakterga

egadir. Bu borada profilaktik ishlar jarayonida yangi aniqlangan holatlar bo'yicha individual profilaktik rejaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish mumkin hisoblanadi. Albatta aytib o'tish joizki, har bir huquqni muhofaza qiluvchi organ oldidagi asosiy vazifa va maqsad fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kerakligi, davlat organlarini yangi qiyofasini shakllantirilsa, shundagina fuqarolarning ishonchi huquqni muhofaza qiluvchi organlarga nisbatan ijobiy bo'lishi ko'zda tutiladi. Hozirgi kunda respublikamizda huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha ham keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashishning yangi tizimi zamonaviy transport vositalari va aloqa vositalarini yaratilishi, texnik ta'limot yaxshilanishi, jamoat joylarida videokuzatuv moslamalari o'rnatilishi bu borada juda qo'l kelmoqda. Jamoat tartibi va xavfsizlik masalalariga barcha idora, tashkilot va muassasa, har bir fuqaro e'tiborini qaratishi, bunga o'z hissasini qo'shishga davat etish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilayotgani ham o'z samarasini bermoqda. Biroq ushbu yo'nalishni yanada kuchaytirish talabi hamon yuqoriligicha turibdi. Bu esa mazkur masalaga yanada ko'proq e'tibor qaratishni, uni tahlillar, ilmiy tadqiqotlar asosida chuqurroq o'rganishni taqozo etadi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish, uning salbiy oqibatlarini oldini olish bugungi kunda jamiyatimizning har bir azosi oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shuni unutmasligimiz lozimki, biz XXI asrda, intellektual qadriyatlar ustuvor bo'lgan asrda, globallashuv jarayonlari shiddatli tus olayotgan va jahon bozorida raqobat tobora kuchayib borayotgan asrda yashamoqdamiz. Bunday salbiy holatlarning oldini olishda huquqbuzarliklarni oldini olish xizmatlari tomonidan o'tkazilayotgan maxsus profilaktik tadbirlarning to'g'ri tashkil etilishi hamda mahallaning va shu mahallada xizmat olib boradigan profilaktika inspektorlarining o'ziga xos nufuzi va o'rniga alohida e'tibor qaratsak maqsadga muvofiq bo'ladi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Lex.uz (normativ hujjatlarbazasi)
2. "Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5005
3. "O'zbekistan Respublikasida interpolning milliy markaziy byurosini tashkil etish to'g'risida" Vazirlar Maxkamasining 29.11.1994 yil 574-son qarori
4. <https://uz.wikipedia.org/> (Qidiruv resurslar bazasi)
5. 2021 yil 26 martdagi "Jamoat xavfsizligini ta'minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6196 son Farmoni

6. O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi» nomli ma‘ruzasi

7. 2021 yil 30 noyabr “Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlarining yuridik yo‘nalishdagi bilimlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

8. “Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta‘minlashda ularning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5005

*Ilmiy rahbar – podpolkovnik Shoumarov Ziyoviddin Shamsiddinovich,
Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrasida katta o‘qituvchisi*